

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar–iyunida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 15 280,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 2,1 % ga kamaydi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 6,0 % ga yetdi.



### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar- iyun	2020-yil yanvar- iyun	
<b>I. YaHM</b>		<b>14 052,2</b>	<b>15 280,1</b>	<b>97,9</b>
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 684,8	14 677,1	98,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 367,4	603,0	96,8
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>12 684,8</b>	<b>14 677,1</b>	<b>98,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4 964,6	5 822,8	97,2
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 442,6	3 843,4	95,7
	sanoat	2 495,1	2 751,0	94,0
	qurilish	947,5	1 092,4	100,3
<b>Xizmatlar</b>		<b>4 277,6</b>	<b>5 010,9</b>	<b>100,8</b>

		Mlrd. so'm		2019-yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-iyun	2020-yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	873,7	994,8	99,7
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	706,2	754,9	98,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	2 697,7	3 261,2	101,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 643,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga kamdir.



### Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



## QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,9 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 0,6 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 39,7 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 18,7 % dan iborat bo`lib, 1,0 % ga kamaydi, qurilishniki esa 0,1 % punktga tushdi va 7,4 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 34,2 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,5 % punktga o'sdi.




### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019-yil	2020-yil
<b>I. YalM, jami</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,3	96,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	9,7	3,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	39,1	39,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,2	26,1
	sanoat	19,7	18,7
	qurilish	7,5	7,4
<b>Xizmatlar</b>		<b>33,7</b>	<b>34,2</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,9	6,8


		2019-yil	2020-yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,6	5,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,2	22,3





**Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM  
tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog`liqdir. O'sish sur'atlari qurilishda – 100,3 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 7,4 %), xizmatlar sohasida – 100,8 % ni (34,2 %) tashkil etdi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 97,2 % (39,7 %), sanoatda – 94,0 % (18,7 %) kamayish kuzatildii. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 99,7 % (6,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 98,9 % (5,1%) kamayish, boshqa xizmat tarmoqlarida 101,7 % o'sish (22,3 %) kuzatildi.



### Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2020-yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning xizmatlar sohasi YaHMning 0,2 f.p. (2019-yilning yanvar-iyunida – 1,8 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi. Sanoat tarmog'i – 1,0 f.p. salbiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning kamayishi hisobiga YaHMning -0,3 f.p. ga kamaydi.




## QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**2020-yil yanvar-iyun oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan % da)**



2020-yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 120,6 % va sanoatda – 117,3 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

